



“TASDIQLAYMAN”

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi boshlig'i

T.Ganiev

2025-yil “9” April

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Axborot xizmati bo'limi to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi (keyingi o'rnlarda Statistika boshqarmasi) Axborot xizmati bo'limining (keyingi o'rnlarda Axborot xizmati deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Axborot xizmati Statistika boshqarmasining mustaqil tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Axborot xizmati o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

3. Axborot xizmati o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikasi to'g'risida"gi qonuni va O'zbekiston Respublikasi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, jumladan, "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4366-sod qaroriga, O'zbekiston Respublikasi "Milliy statistika qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Axborot xizmati o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (keyingi o'rnlarda - AOKA) bilan o'zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Axborot xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar Axborot xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida Axborot xizmatining zimmasiga yuklangan vazifalarni AOKA, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikda ta’minalash;

Statistika boshqarmasi faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda - OAV), ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo‘li bilan aholiga muntazam, to‘liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

Statistika boshqarmasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlari haqida axborot berish va yoritish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

Statistika boshqarmasining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o‘rganish;

OAV bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma’lumotlarni tarqatish;

muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida Statistika boshqarmasi rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish;

axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, OAV va Internet tarmog‘ida Statistika boshqarmasi faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;

Statistika boshqarmasi faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio va videomateriallardan iborat ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

6. Axborot xizmatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

OAVda, shu jumladan, Internet tarmog‘ida axborotlarni e’lon qiladi shuningdek, boshqarmaning rasmiy veb-saytida ma’lumotlarni yangilab borishni ta’minalaydi;

OAV vakillari, jurnalist va blogerlar, statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarining so‘rovi asosida ularga og‘zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi;

Statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining zamonaviy darajada yuritilishi, shuningdek, boshqarmaning Internet tarmog‘idagi: “Facebook”, “Telegram”, va “Instagram” rasmiy sahifalari faolligini ta’minlaydi;

Statistika boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan rasmiy tadbirlarga oid teledasturlar, roliklar va lavhalarning efirga uzatilgan materiallarini belgilangan tartibda saqlash va ularning arxivlashtirilishini ta'minlaydi.

III. Axborot xizmatining huquqlari va majburiyatlar

7. Axborot xizmati o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Axborot xizmatining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni boshqarma, tuman (shahar) bo‘limalaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

Statistika boshqarmasining yig‘ilishlari, majlislari va boshqa tadbirlarida qatnashish;

qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun Statistika boshqarmasining boshlig‘i bilan kelishgan holda boshqa bo‘limlar xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, shartnomaga asosida jalb etish;

rahbariyatning topshirig‘iga ko‘ra, davlat organlarida, respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarda Axborot xizmatiga tegishli masalalar bo‘yicha Statistika boshqarmasi nomidan vakillik qilish;

Statistika boshqarmasining axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Axborot xizmati masalalari bo‘yicha normativ hujjatlar loyihiborini rahbariyatning ko‘rib chiqishi uchun kiritish.

8. Axborot xizmati:

o‘ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi;

Statistika boshqarmasining faoliyatini OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta’minalash uchun javob beradi.

IV. Axborot xizmati faoliyatini tashkil etish

9. Axborot xizmati xodimlarining soni, ular amalga oshiradigan vazifalarning murakkabligi va hajmiga ko‘ra, Milliy statistika qo‘mitasi raisi tomonidan, xodimlarning tasdiqlangan umumiy soni doirasida belgilanadi.

10. Axborot xizmati faoliyati Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan ish rejasi asosida amalga oshiriladi.

11. Axborot xizmatiga AOKA xulosasiga ko‘ra, Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rahbar boshchilik qiladi.

12. Axborot xizmati rahbari bevosita Statistika boshqarmasi boshlig‘iga bo‘ysunadi va bir vaqtning o‘zida boshliqning matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi hisoblanadi.

13. Axborot xizmati rahbari:

Axborot xizmati faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda unga yuklangan vazifa va funksiyalarining bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Axborot xizmati faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi; Statistika boshqarmasi hamda tuman (shahar) bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

14. Axborot xizmati faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta’minlash, ijtimoiy-maishiy xizmat ko‘rsatish Statistika boshqarmasi hamda tuman (shahar) bo‘limlari xodimlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyunda qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4366-son qarorida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

V. Yakuniy qoidalar

14. Axborot xizmatini qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.